

2022-yil yanvar-aprel oylari uchun Xorazm viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-aprel oylariga, Xorazm viloyatida jami 1131,6 mlrd soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʼati 2021-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 103,0 %ni tashkil etdi.




Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.



Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʻlgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi boʻyicha boʻlinadi.


Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu — oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Joriy yilning yanvar-aprel oylarida jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **68,3** mlrd soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning yanvar- aprel oylariga nisbatan **85,9** %ga bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2021- yilning mos davridagi koʻrsatkich darajasidan **1,1** % punktga kamaydi va **6,0** %ni tashkil etdi.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, %da



Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Xonqa tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **27,3** % yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **50,4%**), Urganch shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **26,8** % yoki 2021- yilning yanvar- aprel oylariga nisbatan **57,2** %) va Urganch tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **9,4** %, yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **38,7** %) hissasiga toʻgʻri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2022- yilning yanvar-aprel oylariga kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 66,4 %i to'g'ri kelib, 2021- yilning yanvar-aprel oylaridagi ko'rsatkichiga nisbatan 0,87 foizga oshdi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning mos davriga nisbatan 103,3 %ni tashkil etgan holda 751,4 mlrd so'm miqdorida bajarildi.




Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi %da



Ma'lumot uchun: joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Urganch shahri (214,7 mlrd so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 96,2 %), Urganch tumani (78,6 mlrd so'm yoki 113,1 %) va Xiva tumaniga (78,1 mlrd so'm yoki 118,5 %) to'g'ri keldi.

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **71,5** mlrd so'mlik, nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **1060,1** mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **6,3 %** va **93,7 %**ni tashkil etdi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari





**2022- yilning yanvar-aprel oylarida
hududlar kesimida mulkchilik shakllari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd so'm	ulushi % da	mlrd so'm	ulushi % da
Xorazm viloyati	1131,6	71,5	6,3	1060,1	93,7
Urganch sh.	266,3	22,3	2,0	274,6	24,3
Xiva sh.	75,2	5,3	0,5	82,3	7,3
tumanlar:					
Bog'ot	66,6	4,5	0,4	61,1	5,4
Gurlan	63,5	0,0	0,0	63,1	5,6
Qo'shko'pir	64,9	4,5	0,4	57,3	5,1
Urganch	95,5	7,5	0,7	90,6	8,0
Hazorasp	61,5	5,4	0,5	50,9	4,5
Tuproqqal'a	64,6	4,7	0,4	43,1	3,8
Xonqa	83,4	3,5	0,3	76,4	6,8
Xiva	115,3	0,0	0,0	91,5	8,1
Shovot	81,5	5,7	0,5	71,2	6,3
Yangiariq	45,9	3,9	0,3	49,6	4,4
Yangibozor	47,4	4,1	0,4	48,3	4,3



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi 2022- yil yanvar-aprel oylari

2022- yil yanvar-aprel

1 Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 76,1 % yoki **861**, mlrd so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

76,1 %

2 Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **64,6** mlrd so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 7,5 %ni tashkil etdi.

7,5 %

3 Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **501,4** mlrd so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 58,2 %ni tashkil etdi.

58,2


4 Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **295,0** mlrd so‘mni yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 34,3 % ni tashkil etdi.

34,3%



Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar
kesimida qurilish ishlari
2022- yil yanvar-aprel oylarida**

mld s'om

	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
Xorazm viloyati	1131,6	793,4	237,5	100,7
Urganch sh.	296,9	162,7	79,5	24,1
Xiva sh.	87,6	45,0	22,8	7,4
tumanlar:				
Bog'ot	65,6	48,9	11,9	5,8
Gurlan	63,1	46,5	3,3	13,7
Qo'shko'pir	61,8	48,6	13,8	2,5
Urganch	98,1	54,3	23,9	17,3
Hazorasp	56,3	53,9	6,7	0,9
Tuproqqal'a	47,8	43,6	17,1	3,9
Xonqa	80,0	55,0	22,3	6,1
Xiva	91,5	96,4	14,4	4,5
Shovot	77,0	63,8	6,5	11,2
Yangiariq	53,6	40,5	5,2	0,2
Yangibozor	52,4	34,2	6,1	3,0

2022- yilning yanvar-aprel oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari

mlrd so'm

Urganch sh.
296,8

Xiva
91,5

Urganch
98,1

Xonqa
80,1



Ma'lumot uchun: qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Urganch shahri (296,8 mlrd so'm), Xiva (91,5 mlrd so'm), Urganch (98,1 mlrd so'm) hamda Xonqa tumanlariga (80,1 mlrd so'm) to'g'ri keladi.



XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Xorazm viloyati
statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi
Aloqa telefoni: (62)224-65-22